

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

---

**BARAKAYEVA DILDORA BAXRIDDIN QIZI**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *FERULA TADSHIKORUM*  
O‘SIMLIGI SMOLASINING KIMYOVİY  
TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Barakayeva Dildora Baxriddin qizi**

O'zbekiston florasidagi *Ferula tadshikorum* o'simligi smolasining  
kimyoviy tarkibi va biologik faolligi .....3

**Баракаевой Дилдора Бахриддин кизи**

Химический состав и биологическая активность смолы корней  
*Ferula tadshikorum* флоры Узбекистана.....21

**Barakaeva Dildora Bakhridin kizi**

Chemical composition and biological activity of the resin roots of  
*Ferula tadshikorum* flora of Uzbekistan.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

---

**BARAKAYEVA DILDORA BAXRIDDIN QIZI**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *FERULA TADSHIKORUM*  
O‘SIMLIGI SMOLASINING KIMYOVİY  
TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/674 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va «ZiyoNET» axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mukarramov Nuridin Isomidinovich**  
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdulladjanova Nodira Gulomjanovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Nishonov Mirkozimjon**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_\_» soat \_\_\_\_\_ dari majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi., 19. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, e-mail: [farduinfo@umail.uz](mailto:farduinfo@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dari \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**V.U.Xo‘jayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi k.f.d., professor

**Sh.Sh.Turg‘unboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.V.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi k.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Dunyo aholisi foydalanib kelayotgan dori vositalarini dorivor o'simliklar xom ashyosi asosida tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda va shu sababli dorivor o'simliklarga talab kundan kunga ortib bormoqda. Salbiy ta'siri kam bo'lgan dorivor o'simliklar xom ashyosi asosida tayyorlangan dori vositalari biologik faol birikmalar, vitamin va mineral moddalarga boy bo'lib, inson organizmiga samarali ta'sirga ega. Ko'plab kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarini aynan o'simliklardan olinayotganligi va bu turdag'i yangi o'simlik turlarini izlab topish, ulardan biologik faol moddalarni ajratib olish, kimyoviy tuzilishi va farmakologik faolliklarini aniqlash hamda ularni tibbiyotda qo'llash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda o'simliklardan biologik faol moddalarni ajratib olishning samarali usullarini ishlab chiqish va ajratib olish, ularni kimyoviy hamda fizik tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish, biologik faolliklarini aniqlash va amaliyotga qo'llanilishini o'rganish, ajratib olingan birikmalardan samarali dori vositalari yaratish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, *Apiaceae* (ziradoshlar) oilasiga kiruvchi *Ferula* turkumiga mansub o'simlik turlarini kimyoviy tarkibini aniqlash, biologik faol birikmalarini ajratib olish, farmakologik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida xalq tabobatida ma'lum biologik faolliklarni ilmiy asoslashga va yangi ta'sirdagi dorivor vositalar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda farmatsevtika sohasida aholini dorivor o'simliklardan olingan biologik faol moddalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda dorivor o'simliklar asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dori-vositalari ishlab chiqarishni kuchaytirish maqsadida keng ko'lamda chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, respublikamizda o'suvchi *Ferula* turkumi o'simliklaridan biologik faol birikmalarini ajratib olish, kimyoviy tarkibini o'rganish hamda ular asosida yuqori samarali arzon dori vositalarni ishlab chiqish sohasidagi ishlarni jadallashtirish, yangi tabiiy dori vositalarini yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PF-139-son "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 16-fevraldagi PF-24-son "Yaylovlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2020-yil 10-aprelda PQ-4670-son "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- son Farmoni

va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darjasи.** Markaziy Osiyoda, jumladan, G'arbiy Tyanshanda o'sadigan *Ferula L.* turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari, M.Pimenov, Y.Baranova, U.Rahmonqulov tomonidan, *Ferula L.* turlarining sistematikasi E.P. Korovin tomonidan o'rganilgan. M.G. Pimenov *Ferula L.* turkumining yangi 10 turiga tasnif berib, turkumning yangi klassifikatsiyasini yaratgan va uni 18 ta seksiyaga ajratgan. Jizzax viloyatida tarqalgan *Ferula L.* turkumi turlari haqida H.Abdurayimov va U.Rahmonqulovlarning hududda uchraydigan o'simliklarning urug'idan unish biologiyasi, ba'zi turlarining morfobiologik, shifobaxshlik xususiyatlari haqida ma'lumotlari e'lon qilingan. Respublikamizda faqatgina *Ferula kuhistanica* turining farmakologiyasi o'rganilgan bo'lib, boshqa turlari to'liq o'rganilmagan va ulardan olinadigan mahsulotlarning kimyoviy tarkibi chuqur o'rganilmagan. *Ferula L.* turkumi turlarining kimyoviy tarkibini o'rganishda O'R FA O'simlik moddalarini kimyosi instituti olimlari A.I. Saidxo'jayev, B.M. Malikov va A.K. Eshbakovalar tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. 1970-1980-yillar davomida O'rtta Osiyoda uchraydigan *Ferula L.* turkumi turlarining 50 taga yaqin turining kimyoviy tarkibi o'rganilib, ulardan 250 ga yaqin terpenoidli moddalar ajratib olingan. 90 dan ortiq turlari tarkibida seksviterpenoidli moddalar uchrab, shundan 55 ta turida terpenoidli kumarinlar, 34 ta turida murakkab efirlar, 15 ta turida esa seksviterpenli laktolalar uchrashi aniqlangan. Hozirgi kunda O'simlik moddalarini kimyosi instituti olimasi professor S.F. Aripova *Ferula tadshikorum* o'simligi smolasidan gelmintlarga qarshi preparat yaratish ustida ish olib bormoqda. Yuqorida qayd etilgan holatlar va ilmiy muammolar, adabiyotlarda bu turning kimyoviy tarkibi va biologik faolligi yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mavzuni tanlanishiga ilmiy va amaliy jihatdan asos bo'ldi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Biologik faol moddalar sintezini tadqiq qilish” va O'R FA O'simlik moddalarini kimyosi institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O'zbekiston florasi o'simliklarining terpenoidlari asosida yangi dori vositalarini (antiparazitar, ginekologik va yallig'lanishga qarshi) yaratish va texnologiyasini ishlab chiqish” yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Respublikamizning janubiy tog' va tog'oldi hududlarida uchraydigan *Ferula tadshikorum* o'simligi ildizi smolasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini aniqlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasini spirtda ekstraktsiya qilish, ekstraktni yuqori samarali yupqa qatlama xromatografiya (YuSYuQX) usulida ultrabinafsha (UB) nurda ko'rinvchi moddalarini toza holda ajratish va ularni identifikasiya qilish;

Smola tarkibidagi yengil uchuvchan komponentlar, uglevodlar, kul va oqsil moddalarini ajratish va miqdorini aniqlash, smola tarkibidagi makro-, mikro-elementlarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish;

Madaniylashtirilgan va tabiiy holda o'sadigan *Ferula tadshikorum* ildizi smolasining yengil uchuvchan komponentlari hamda YuSYuQX usulida UB nurda ko'rinvchi moddalarini o'zaro taqqoslash;

Madaniylashtirilgan holda o'sadigan *Ferula tadshikorum* yetishtirilgan joyning tuprog'i tarkibini kimyoviy tahlil qilish;

*Ferula tadshikorum* smolasining donak shira, holva, shira va efir moyi navlarini biologik faolliklarini aniqlash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Respublikamizning janubiy viloyatlari tog' va tog'oldi hududlarida tabiiy holda o'sadigan va turli viloyatlarda madaniylashtirilgan *Ferula tadshikorum* o'simligi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Respublikamizning janubiy viloyatlari tog' va tog'oldi hududlarida uchraydigan *Ferula tadshikorum* (tojik kovragi) va undan olinadigan smoladan ajratilgan ftalatlar, ferul kislotasi, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada zamonaviy spektroskopik (IQ, UB, YaMR), mass-spektrometrik va Rentgen tuzilish tahlili (RTT) usullari, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, yuqori samarali yupqa qatlamlı xromatografiya usullari, farmakologik tadqiqot usullari, bundan tashqari dala tajribalari, kuzatuv, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidagi yengil uchuvchan birikmalarining xromato-mass tahlili yordamida o'rganilishi natijasida 43 ta birikmalarning mavjudligi aniqlangan;

smola tarkibidan ferul kislotasi (3-metoksi-4-gidrooksisinamik kislota), bis(2-etylgeksil)ftalatning 7 ta izomeri (o-ftal kislotaning murakkab efirlari) ajratib olindi va tuzilishi RTT, spektroskopik va xromatografik usullar yordamida isbotlangan;

induktiv bog'langan argon plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida *Ferula tadshikorum* ildizi smolasining element tarkibini o'rganish natijasida smola tarkibidan 36 ta makro- va mikroelement aniqlangan;

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasi tarkibidagi uglevodlar, oqsillar, vitaminlar sifat va miqdor jihatdan aniqlangan, smola tarkibidan ajratib olingan ferul kislotasining tuzilishi RTT usuli yordamida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasidan olingan "Tojik kovragi shirasining quyuq ekstrakti" va "Tojik kovragi ildizi shirasi" ozuqaga biologik faol qo'shimcha va unga tegishli me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan;

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasining biologik faolliklari chuqur o'rganilishi natijasida smolaning suyuq qismi (efir moyi) boshqa smola navlariga nisbatan mikroblarga va suyak yemirilishiga qarshi yuqori faollikkaga ega ekanligi aniqlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ajratib olingan moddalarini tadqiq qilishda zamonaviy fizik-tadqiqot usullaridan UB, IQ, YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya, Rentgen tuzilish tahlili, yuqori

samarali yupqa qatlamli xromatografiya va yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usullari hamda etalon moddalar bilan taqqoslashdan foydalanilganligi bilan, shuningdek, tadqiqot natijalarining xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokamasi va chuqur taqriz qilinadigan ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston florasidagi *Ferula tadshikorum* o‘simligi ildizi smolasining kimyoviy tarkibini sistematik ravishda o‘rganilishi, uning tarkibidagi ikkilamchi metabolitlar, yengil uchuvchan moddalar, ferul kislotasi, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, makro-, mikroelementlarning aniqlanishi va bu jarayonlarda zamonaviy fizik tadqiqot usullarining tatbiq qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Ferula tadshikorum* o‘simligi ildizi smolasining efir moylarini mikroblarga qarshi faollikni namoyon qilishi, smolaning efir moylari va holva navlari suyak yemirilishiga qarshi yuqori faollikni namoyon qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, smolani eksport qilishda mahsulotning sifat tarkibini aniqlash maqsadida ferul kislotasini yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi tahlil usuli ishlab chiqilishi amaliy ahamiyatga xizmat qiladi

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *Ferula tadshikorum* o‘simligi ildizi smolasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasidan olingan “Tojik kovragi shirasining quyuq ekstrakti” va “Tojik kovragi ildizi shirasi” ozuqaga biologik faol qo‘shimcha uchun texnikaviy shartlar O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (TS 03535440-054:2023; TS 03535440-056:2023). Mazkur texnikaviy shartlar mahsulotning sifati va texnologik jarayonini nazorat qilish imkonini bergen.

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasini kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o‘rganish natijasida ajratib olingan ikkilamchi metabolitlardan va tadqiqot doirasida foydalanilgan usullardan № IZ-202002191 “O‘zbekiston florasi o‘simliklarining terpenoidlari asosida yangi dori vositalarini (antiparazitar, ginekologik va yallig‘lanishga qarshi) yaratish va texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada dorivor o‘simliklar tarkibidan yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi va yuqori samarali yupqa qatlamli xromatografiya usullari yordamida ikkilamchi metabolitlarni sifat va miqdor jihatidan aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 19-iyundagi 4/1255-1312 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kelajakda tibbiyotda ekologik xavfsiz biologik faol qo‘shimcha yaratishga asos bo‘lib xizmat qilish imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy maqola va tezislar, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan 2 ta xorijiy va 3 ta Respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etadi.

*Mazkur dissertatsiya tadqiqotlarining asosiy qismi O‘R FA O‘simlik moddalari kimyosi institutining alkaloidlar kimyosi laboratoriyasida bajarilgan. Muallif O‘simlik moddalari kimyosi instituti rahbariyatiga, alkaloidlar kimyosi, molekulyar genetika, fizik tadqiqot usullari laboratoriyalari, farmakologiya va toksikologiya bo‘limi xodimlariga hamda ilmiy maslahatlari uchun k.f.d., professor S.F. Aripovaga o‘z minnatdorchilagini bildiradi.*

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyektlari hamda predmetlari tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati oshib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Ferula L. turkumi o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi*” deb nomlangan birinchi bobida ushbu turkumga mansub o‘simlik turlarining kimyoviy tarkibi, turkumga mansub turlardan ajratib olingan smolaning kimyoviy tarkibi va biologik faolligi, o‘simlikning xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda ishlatilishi bo‘yicha adabiyot ma’lumotlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “*Ferula tadshikorum ildizi smolasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi*” deb nomlangan ikkinchi bobida *Ferula tadshikorum* ildizi smolasi tarkibidan ikkilamchi metabolitlarini ajratib olish, o‘rganish, ferul kislotaga nisbatan standartlashtirish, shuningdek smola tarkibidagi uglevodlar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, oqsillar, namlik va kul miqdorini aniqlash, tuproq tahlili, shu bilan birga smoladan ajratilgan suyuq qismni kimyoviy tarkibini aniqlash hamda madaniylashtirilgan ushbu turning kimyoviy tarkibi bilan taqqoslash, smolaning turli navlarini biologik faolligini tadqiq qilish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

*Ferula tadshikorum o‘simligi ildizi smolasining kimyoviy tarkibini aniqlash.* *Ferula tadshikorum* ildizi smolasi tarkibidagi ikkilamchi metabolitlarni ajratib olish va ularni tuzilishini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Buning uchun tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidan turli vaqtarda yig‘ilgan *Ferula tadshikorum* ildizi smolasi (donak shira, holva, shira) navlari tanlangan.

*Ferula tadshikorum* o‘simligi ildizining smolasi o‘tkir hidli bo‘lishi uning tarkibida ko‘p miqdorda yengil uchuvchan moddalar mavjudligidan dalolat beradi. Smolaning biologik faolligining asosiy sababi ham tarkibidagi shu yengil uchuvchan moddalardir.


*Ferula tadshikorum* o'simligi ildizi smolasining tarkibiy qismlarini o'rganish maqsadida, dastlab smola tarkibidan yengil uchuvchan moddalari ajratib olindi, buning uchun smola geksan hamda siklogeksanda eritildi va eritma membranali filtr orqali filtrlanib, xromato-mass usuli yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra barcha smola namunalarida quyidagi umumiy kimyoviy tarkib mavjudligi qayd etildi:

1. Palmitin, olein, palmito-olein, miristin kislotalar.
2. Ularning efirlari –  $\beta$ -bisabolen,  $\alpha$ -selinen.
3. Oltingugurt saqlovchi organik birikmalar va boshqalar.


*Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidan yuqori samarali yupqa qatlamlı xromatografiya usuli yordamida ikkilamchi metabolitlarini ajratish. *Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidagi ikkilamchi metabolitlarini ajratishni boshlashdan avval, smola tarkibidagi moddalar to'g'risida umumiy ma'lumot olish uchun smola yuqori samarali yupqa qatlamlı xromatografiya usulida tahlil qilindi. Buning uchun namunaning 2 mg/ml konsentratsiyali spirtli eritmasi tayyorlandi va HPTLC Silica gel 60 F<sub>254</sub> (Germany) markali plastinkaga "CAMAG AUTOMATIC TLC SAMPLER 4" pribori yordamida purkash usulida sepish amalga oshirildi. Namunalar sepilgan plastinkani elyuirlash geksan : etilatsetat -1:1 sistemasida "CAMAG ADC 2" avtomatik priborida olib borildi. Elyuirlangan xromatografik plastinka "CAMAG TLC SCANNER-4" yordamida visionCATS dasturida skaner qilindi.

Xromatografik plastinkanining tasviri CAMAG TLC Visualizer-2 pribori yordamida uch xil to'lqin uzunligi (366 va 254 nm hamda ko'rinuvchi nur) sohasida olindi (1-rasm).

Yuqoridagi usuldan foydalanib smolaning uchta navi tahlil qilindi va ular taqqoslandi. Tahlil natijalariga ko'ra smolaning uchta navida ham bir xil metabolitlar mavjudligi, ular faqat o'zaro nisbatlari bilan bir-biridan farq qilishi aniqlandi. Olingan natijaga asoslanib namunalarning holva navi tanlandi va tarkibida miqdori ko'p bo'lgan moddalar (asosiy komponentlar)ni aniqlash maqsadida ular preparativ YuQX usulida ajratildi. Buning uchun smola dastlab geksan bilan yuvib olindi va namunaning geksanda erimay qolgan qismidan spirtli eritma tayyorlandi. Bunda olingan namunaning 35 foizi spirtda erishi aniqlandi. Spirtli eritma pribor yordamida plastinkaga purkaldi va elyuirlash avtomatik kamerada amalga oshirildi. Yuqoridagi usuldan foydalanib qo'yilgan xromatografik plastinkadan preparativ usulda 5 ta modda individual holda ajratib olindi, yig'indi bilan taqqoslandi (366 nm) hamda CAMAG TLC "Scanner 4" pribori yordamida ajratilgan moddalarning tozaligi tekshirildi (2-rasm).




**1-Rasm.** Xromatografik plastinkaning a) 366 nm, b) 254 nm, c) ko‘rinuvchi nur sohalarida CAMAG TLS Visualiser-2 pribori yordamida olingan tasviri



**2-Rasm.** Individual ajratilgan 5 ta moddaning xromatogrammasining grafik ko‘rinishi (366 nm)


Tadqiqot davomida 5-moddaning tuzilishi chuqur o‘rganilib, uning  $^1\text{H}$  YaMR va  $^{13}\text{C}$  YaMR spektrlari asosida bis(2-etylgeksil)ftalat ekanligi aniqlandi (3-rasm).

**YaMR  $^1\text{H}$  spektri (600 MGs,  $\text{CDCl}_3$ ,  $\delta$ , m.u.,  $J/\text{Gs}$ ):** 7.69 (2H, m, H-3.6), 7.52 (2H, m, H-4.5), 4.20 (4H, m, H-1', 1''), 1.25-1.68 (18H, m, H-2'-5', 7', H-2''-5'', H-3'3''), 0.91 (6H, t,  $J=7.6$ , H-8', 8''), 0.88 (6H, m, H-6', 6'').



**3-Rasm.** Bis(2-etylgeksil) ftalat  $\text{C}_{24}\text{H}_{38}\text{O}_4$


Bundan tashqari 5-modda xromato-mass usulida tahlil qilib, natijalari xromato-mass-spektrometr elektron kutubxonasining (Wiley Registry of Mass Spectral Data-9<sup>th</sup>Ed., NIST Mass Spectral Library, 2011) ma'lumotlari bilan taqqoslanganda, bis(2-etylgeksil)ftalatning fragmentlariga aynan mos kelishi aniqlandi(4-rasm).



#### **4-Rasm. 5-moddaning mass spektrini xromato-mass-spektrometr elektron kutubxonasiidagi ma'lumotlar bilan taqqoslash**

Ushbu moddaning IQ spektri tahlili natijalari ham uning bis(2-etylgeksil)ftalat ekanligini to‘liq tasdiqlaydi (5-rasm).

IQ-Spektr: ( $\nu$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 1071, 1122 (C-O); 1567, 1599 ( $\nu$ , arom); 1726( $\nu$ , C=O); 2856, 2925, 2957 ( $\nu$ , C-H).



## 5-Rasm. Bis(2-etylgeksil)ftalatning IQ spektri


Preparativ usulda ajratilgan keyingi 4 ta moddaning ham xromato-mass tahlillari amalga oshirildi. Tahlil natijasiga ko‘ra ajratilgan 5 ta moddaning ham ushlanish vaqtি bir xil (16.6 min.) ekanligi aniqlandi. Moddalarning xromato-mass tahlili natijalarini xromato-mass-spektrometr elektron kutubxonasi ma’lumotlari bilan taqqoslanganda, keyingi 4 ta modda ham diizooktilftalatning izomerlari ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari olingan natijalarni tasdiqlash maqsadida toza holda ajratib olingan 1-moddaning  $^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR spektrlari o‘rganildi. Olingan YaMR spektr ma’lumotlari natijalari ham ushbu moddani bis(2-etylgeksil)ftalatning izomeri ekanligini tasdiqladi.


*Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidagi ferul kislotasini aniqlash. Ferul kislotasi terining doimiy yosh yurish manbai hisoblanadi, u terining oksidlanish stressiga olib keluvchi - erkin radikallarning salbiy ta’siriga qarshi kurashishga yordam beruvchi, o’simlikdan ajratib olingan kuchli antioksidant ekanligi ta’kidlangan. Oksidlanish stressini teri qarishining asosiy omillaridan biri deb hisoblash mumkin.

Smola tarkibidagi ferul kislotasi standart ferul kislotasi (sertifikat raqami: DRE-C13644100 G1350003) bilan YuSYuQX usulida taqqoslash orqali aniqlandi (6-rasm).


Smoladan ajratib olingan ferul kislotasidan metanol:geksan-1:1 sistemada monokristall o’stirildi (o‘lchami: 0.30 \*0.26 \*0.23 mm) va tuzilishi RTT yordamida isbotlandi. RTT natijasiga ko‘ra, kristallografik parametrlari ( $a=4.6451$  Å,  $b=16.8286$  Å,  $c=12.0282$  Å,  $\alpha=90^\circ$ ,  $\beta=90.077^\circ$ ,  $\gamma=90^\circ$ ,  $V=941.45$  Å $^3$ ) adabiyot ma’lumotlariga mos keldi (7 va 8-rasmlar).



**6-Rasm.** 254 nm to‘lqin uzunligida: a) smolaning; b) ferul kislotasining xromatogrammasi



**7-Rasm.** Ferul kislotasi tuzilishining 3D ko‘rinishi



**8-Rasm.** Ferul kislotasining kristall tuzilishida kuzatilgan molekulalararo O–H...O vodorod bog‘lanish

Tadqiqotimiz davomida *Ferula tadshikorum* ildizidan turli vaqtda terilgan 3 xil smola tarkibini ferul kislota bo'yicha standartlashtirish amalga oshirildi. Buning uchun namunalar: namuna 1 – birinchi hosil (donak shira); namuna 2 – ikkinchi hosil (holva); namuna 3 – uchinchi hosil (shira) navlari tahlil qilindi. Tahlil guvoh modda sifatida standart ferul kislotasidan foydalangan holda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usulida amalga oshirildi. Standartlashtirish C18 kolonkasida olib borildi va xromatografiya gradiyent sharoitda 0.5 ml/min oqim tezligida o'tkazildi (1-jadval).

### 1-Jadval

#### Harakatchan fazaning gradiyent shartlari

Erituvchi	Vaqt (minut)						
	0.01	5.0	10.00	12.00	20.00	24.00	30.00
A	100	80	80	0	0	100	stop
B	0	20	20	100	100	0	stop

Kolonka 30 daqiqa davomida, 0.5 ml/min oqim tezligida A erituvchi bilan yuvildi. Standart modda eritmasi va namunalar eritmalar ketma-ket pribordan o'tkazildi va natijalar qayd qilindi (2-jadval).

### 2-Jadval

#### Ferul kislotasi va smola namunalarining tahlil natijalari

Nº	Namuna	Ushlanish vaqtி	Cho'qqi maydoni (o'rtacha)
1	Standart	4.6	899924
4	Namuna 1	4.65	38705
5	Namuna 2	4.73	45548
6	Namuna 3	4.74	43449

Smola tarkibidagi ferul kislotasining massa ulushini (X%) hisoblash quyida keltirilgan formula (1) yordamida amalga oshirildi:

$$X = \frac{S_1 \times m_1 \times P}{S_0 \times m_2}, \quad (1)$$

*Bu yerda,*

$S_1$  – preparat namunasi eritmasidagi ferul kislotasi cho'qqisi maydonining o'rtacha qiymati;

$S_0$  – standart eritmadagi ferul kislotasi cho'qqisining o'rtacha maydoni;

$m_1$  – standart ferul kislota miqdori, g;


$m_2$  – smola namunasining miqdori, g;

$P$  – standartdagi ferul kislotasi ulushi (98.59 %).

YuSSX tahlili natijalariga ko'ra, birinchi hosil *Ferula tadshikorum* smolasida ferul kislotasi miqdori 4.24%, ikkinchi hosil smolasida 4.99%, uchinchi hosil smolasida 4.76% ekanligi aniqlandi.

*Ferula tadshikorum* smolasasi tarkibidagi uglevod qismini aniqlash. *Ferula tadshikorum* smolasasi tarkibining asosiy qismini uglevodlar tashkil etishini hisobga olib, smola tarkibidagi uglevodlar tahlil qilindi.

Buning uchun smola tarkibidan spirtda erimay qolgan 65 foiz modda suvda eritildi va qog'oz xromatografiyasi yordamida guvoh namunalar bilan taqqoslandi. Elyuirlashda sistema sifatida butanol : piridin : suv - 6:4:3 nisbatdagi aralashmadan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, smola tarkibida dominant monosaxaridlar galaktoza va arabinozalar ekanligi hamda glukoza, ksiloza, rannoza uglevodlari mavjudligi aniqlandi (9-rasm).



**9-Rasm.** Smola tarkibidagi uglevodlarni qog'oz xromatografiyasi tahlili: 1-galaktoza, 2-glukoza, 3-arabinoza, 4-ksiloza, 5-rannoza

*Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidagi vitaminlarni aniqlash. O'simlik namunalaridan E vitamininini aniqlashda asosan YuSSX usuli keng qo'llaniladi, yog'da eriydigan vitaminlarni aniqlash usullarini ishlab chiqishda asosiy muammo, namunalardan ularni ajratib olishning qiyinligidadir. YuSSX yordamida E vitaminini aniqlashning eng ko'p tarqalgan usullaridan biri, dastlab namunani ishqoriy eritma bilan sovunlash, so'ngra izooktan yoki geksan singari qutbsiz erituvchi yordamida ekstraksiya qilishga asoslangan. Bu tadqiqot ishida *Ferula tadshikorum* smolasidan E vitaminini ajratib olish uchun qutbsiz erituvchi sifatida atsetonitril ishlatildi.

Standart E vitaminining 0.5 mg/ml li ishchi eritmasi tayyorlandi. Xromatografiya shartlari: Supelco C18, 150 mm × 4.6 mm o'lchamli, 5 mkm zarrachali kolonka ishlatildi, tahlil xona haroratida, 284 nm to'lqin uzunligida amalga oshirildi, harakatchan fazada asetonitril-etylatsetat-80:20, oqim tezligi 1 ml/min, namuna hajmi 20 mkl.

Analiz natijalariga ko'ra, *Ferula tadshikorum* smolasi tarkibida 0.16% E vitamin mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari, *Ferula tadshikorum* smolasi tarkibida suvda eriydigan vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida DAD detektorida 292 nm to'lqin uzunligida o'rghanildi. Tahlil natijalariga ko'ra smola tarkibida 1.522 mg/100 gr. miqdorda C vitamini borligi aniqlandi.

*Ferula tadshikorum* smolasi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorini aniqlash. Makroelementlar – inson tanasining normal hayoti uchun zarur bo'lgan moddalar, ular tananing asosiy tizimlarini – yurak, oshqozon, mushaklar ishlashi va qisqarishida ishtirok etishi, ularning kamligi, yetishmasligi jiddiy kasalliklarga va hattoki o'limga olib kelishi ta'kidlab o'tilgan. Inson tanasi 12 ta makroelementni o'zlashtirishi kerak, ularidan 4 tasi juda muhim sanalib, (C, O, N, H) biogen deb ataladi, chunki bu elementlar tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismidir. Qolgan makroelementlar ham (P, Ca, Mg, Cl, Na, K, S) organizm uchun muhim elementlar hisoblanadi.

Mikroelementlar ham o'simlik, hayvon va odam organizmi uchun zarur

elementlar hisoblanib, o'simliklarda to'qimaning nafas olishida, hayvon organizmida bo'y o'sish va skeleti rivojlanishida, odam organizmida esa immunitet reaksiyalarini va qon hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytib o'tilganidek, smola tarkibidagi inson uchun muhim bo'lgan makro- va mikroelementlari induktiv argon plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida sifat va miqdor jihatdan o'rganildi.

Olingan natijalarga ko'ra, smola tarkibida tirik organizm uchun foydali makro- va mikroelementlar (K, Ca, Mg, Zn, Fe, Ag) miqdori yuqori ekanligi, smola tarkibida eng ko'p tarqalgan element kalsiy (24196.216 mg/l), temir (484.702 mg/l) va magniy (843.269 mg/l) mikroelementlari ekanligi aniqlandi. Tirik organizmlar uchun hayotiy va zarur mikroelementlar borligi, shuningdek, og'ir elementlar (As, Hg, Pb) miqdori me'yorida ekanligi qayd etildi. Xulosa o'mida, *Ferula tadshikorum* ildizidan olinadigan smola mutlaqo zararsiz, xavfsiz, shuningdek, tirik organizmlar uchun juda foydali ekanligi aniqlandi.

*Ferula tadshikorum* smolasi suyuq qismning kimyoviy tarkibini aniqlash, madaniylashtirilgan navi bilan taqqoslash. *Ferula* L. turkumi o'simliklari o'zining oleogum qatroni (smolasi) bilan boshqa dorivor o'simliklardan ajralib turadi. *Ferula tadshikorum* smolasi idishga yig'ilib, bir oydan ortiq vaqt davomida qorong'i joyda saqlanganda tepe qismida suyuq qatlam ajraladi. Ajralgan suyuq qatlam xalq o'rtasida efir moyi deb yuritiladi. O'sha suyuq qatlam smolaning o'ziga nisbatan har xil turdag'i yuqori biologik faolliklarni namoyon qiladi. Uning faolligi unda mavjud bo'lgan moddalarning kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'lib, faollik bitta birikma yoki kimyoviy birikmalar guruhi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

*Ferula tadshikorum* ildizi smolasining suyuq qismini kimyoviy tarkibi (MSD/7890A GC System Agilent Technologies USA LTD) xromato-mass-spektrometriya usuli yordamida o'rganildi. Ushbu namunaning asosiy kimyoviy tarkibi 12 ta moddadan iborat bo'lib, ular Wiley spektr kutubxonasi ma'lumotlariga taqqoslash yo'li bilan aniqlandi, natijalar 3-jadvalda keltirilgan (Wiley W9N11.L, versiya NIST 2.0).


### 3-Jadval

#### ***Ferula tadshikorum* smolasi suyuq qismining GX-MS usulida aniqlangan kimyoviy tarkibi**

No	Komponentlar	RI	Ulushi, %
1	2-(Izopropildisulfanil)butan	1377	0.4
2	Diizobutil disulfid	1404	0.1
3	(Z)-1-Propenil ik.-butil disulfid	1413	3.7
4	(E)-1-Propenil ik.-butil disulfid	1432	7.0
5	$\beta$ -Gurjunen	1530	0.1
6	$\alpha$ -Pompen	1573	0.1
7	Digidrokurkumen	1669	0.3
8	Kuparen	1742	0.2
9	1-(Metiltio)propil propil disulfid	1788	4.6
10	Metil 1-(metiltio)propil disulfid	1812	0.3
11	Z)-1-Propenil 1-(metiltio)propil disulfid	1834	43.3
12	(E)-1-Propenil 1-(metiltio)propil disulfid	1851	38.6

Aniqlangan moddalar orasida asosiy ulushlarni (*Z*)-1-Propenil-1-(metiltio) propil-disulfid (43.3%), (*E*)-1-Propenil-1-(metiltio) propil-disulfid (38.6%), (*E*)-1-Propenil sek-butil disulfid (7%) 1-(Metiltio) propil propil disulfid (4.6%), (*Z*)-1-Propenil sek-butil disulfid (3.7%) tashkil qilgan.

*Ferula tadshikorum* smolasi ekstraktining benzinli fraksiyasi tarkibi ham o‘rganildi. Ushbu namunalarning asosiy kimyoviy tarkibiy qismlari sis- hamda trans-1-propenil-1-(metiltio) propil-disulfidlar aralashmasi ekanligi va sis-izomerining miqdori barcha namunalarda nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi (10-rasm).



**10-Rasm.** 1) sis- 1-propenil-1-(metiltio)propil-disulfid  
2) trans-1-propenil-1-(metiltio)propil-disulfid

*Ferula tadshikorum* o‘simligidan olingan smolaning sifat va miqdoriy tahlili  $\text{CDCl}_3$  va atseton-  $\text{d}_6$  erituvchilarida  $^1\text{H}$  YaMR spektroskopiyasi orqali amalga oshirildi. YaMR spektroskopiya tahlili natijalari ham *Ferula tadshikorum* smolasi eritmasining asosiy tarkibi sis- va trans-1-propenil-1-(metiltio)propil-disulfidlar aralashmasi ekanligini tasdiqladi. Yuqoridagi tahlil natijalari bojxona nazoratidan o‘tayotgan smolani aynan shu turga - *Ferula tadshikorumga* tegishli ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Madaniylashtirilgan holda yetishtirilgan *Ferula tadshikorum* smolasi bilan tabiiy holda o‘sgan o‘simlik smolasining geksanli ekstraktlarini kimyoviy tarkibi taqqoslanganda bir-biridan farq qilishi aniqlandi. Geksanli fraksiya smolaning yengil uchuvchan moddalarini bo‘lib, ularning qiyin uchuvchan fraksiyalarini ham solishtirish uchun YuSYuQX usulida tahlil olib borildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, madaniylashtirilgan holda yetishtirilgan *Ferula tadshikorum* smolasi tarkibida diizooktilftalat izomerlari mavjud emasligi aniqlandi.

